

**BIOXILMA-XILLIKNI SAQLASHDA ALOHIDA MUHOFAZA
ETILADIGAN HUDDLARNING O’RNI**

Suvanova Dilsora Nuraliyevna

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

suvanovadilsora@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologik xilma-xillikni saqlashda alohida muhofaza qiladigan hududlarning ahamiyati yoritilgan. Bioxilma-xillikni muhofaza qilish va uning inson hayot faoliyatida tutgan o’rni haqida bayon qilinadi hamda tavsiyalar beriladi.

Kalit so’zlar: Biologik xilma-xillik, qo’riqxona, milliy bog’, Zomin, Zarafshon qo’riqxonasi.

Global iqlim o‘zgarishi, bu tushuncha bugungi kunda hech birimiz uchun yangilik emas. Iqlim o‘zgarishi va uning ortidan kelib chiqadigan salbiy oqibatlari yetib bormagan sohalar deyarli qolmadi desak mubolag’a bo‘lmaydi. Landshaftlarning esa o‘zgarib borishi ya’ni asl holini yo’qotib borishi ham jadallahashmoqda. Bu esa shundan dalolat beradiki butun yer yuzasida barcha tabiat komponentlari o’zlarining tabiiy holini butunlay yo’qotmoqda yoki bo’lmasa o’z ko’rinishini o’zgartirmoqdalar. Tabiatni asrash uni borligicha kelajak avlodlarga yetkazib berish, tabiat va uning elementlaridan oqilona foydalanish har birimizning eng oliy vazifamiz. Mazkur masalalarning dolzarbliji va ularning ahamiyati shu qadar kattaki hattoki qonun darajasiga ko’tarilgan. Xalqaro miqyosda ko’rib chiqadigan bo’lsak bioxilma-xillik haqidagi konvensiya 1992 yil 5 iyunda Braziliyaning Reo-di-Janeyro shahrida o’tkazilgan. Birlashgan millatlar tashkilotining atrof-muhit va taraqqiyot konferensiyasida imzolanishi uchun ochilgan va 1993 yil 29 dekab kuni dunyoning 30 davlati tomonidan ratifikatsiya qilingandan keyin kuchga kirgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 6 maydagi qaroriga asosan Konvensiyaga qo’shilgan. Birlashgan millatlar tashkiloti konvensiyasini ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qilgan, xalqaro hamjamiyat insoniyat uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan biologik xilma-xillik inson faoliyatining ayrim turlari ta’siri natijasida sezilarli darajada kamayib borayotganlidadir. Konvensiya dunyo hamjamiyatining biologik xilma-xillikni saqlash va ulardan samarali foydalanish yo’llari bo‘yicha, shu jumladan, ularning strategik harakatlar rejalarini ishlab chiqishdagi birgalikdagi ishlarini muvofiqlashtiradi. Bioxilma-xillikni saqlash qolish sohasida ayrim qonun hujjalarni keltirib o’tamiz: “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, “Hayvonot

dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida” va boshqa hukumat tomonidan tegishli qonunlar qabul qilingan. 2004 yil 3-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingandan keyin ko‘p sonli ob’ektlarga – o‘rmon xo‘jalik korxonalari va ovchilik xo‘jaliklariga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomi berildi. O‘zbekistonda atrof-muhitni ifloslanishini oldini olish borasida so‘nggi yillarda bir qator ishlar jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Tabiat va uning elementlarida samarali foydalanish hamda ularni muhofaza qilish maqsadida bir qancha alohida muhofaza qilinadigan hududlar (qo‘riqxonalar, milliy bog’lar va boshqalar) tashkil qilingan va ularning faoliyati muntazam ravishda kuzatib boriladi, nazorat qilinadi. Umuman olganda alohida muhofaza qilinadigan hududlarning asosiy va eng ustuvor vazifalaridan biri biologik xilma-xillikni saqlab qolish, kamyob va yo‘q bo‘lib ketayotgan turlar muhofazasini kuchaytirishga hamda sonini tiklashga xizmat qiladi. Shu o‘rinda bir savol to‘g‘iladi bilogik xilma-xillik nima va uni muhofaza qilish bizga nima uchun kerak? Keling birgalikda mazkur savolga javob topamiz. Biologik xilma-xillik bu yer yuzasidagi tirik hayotdir. Eng kichik mikroorganizmdan tortib to eng yuksak organizmgacha bo‘lgan oraliq bioxilma-xillikni tashkil qiladi. Uni asrash va oqilona foydalanish jamiyat va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minalashning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu maqsad yo‘lida olib borilayotgan amaliy ishlarning ijrosi sifatida tashkil qilingan qo‘riqxonalar, milliy bog’lar, pitomniklar va shu kabi boshqa ko‘rinishdagi maxsus tuzilmalarni keltirishimiz mumkin.

Qo‘riqxonalarning asosiy vazifasi nimadan iborat ekanligini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ular alohida ilmiy yoki madaniy — ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan kamyob hayvonlar hamda o‘simliklar joylashgan noyob tabiiy majmualar. Shu nuqtai nazardan qaralganda qo‘riqxonalarning yer uchastkalari o‘zida alohida rejimdagi yerdan foydalanishni ifoda etadi. Ma’lum dududda tashkil qilingan qo‘riqxona o‘z oldiga oddiy va noyob tabiiy majmualar, o‘simlik va hayvonlarning irlari fondlarini saqlab qolish va o‘rganish, tabiiy jarayonlar va xodisalar o‘zgarishi ustidan monitoring o‘tkazish maqsadini amalga oshirish uchun ajratilgan yer uchastkasidagi tabiatni muhofaza etuvchi ilmiy tadqiqot muassasasidir. Qo‘riqxonalarda ayrim hayvon zotlari va o‘simlik turlari o‘rganiladi, hamda bu yerda insonning har qanday ta’siri butunlay ta’qilangan. Mamlakatimizda dastlabki qo‘riqxona 1929 yilda Turkistonning g’arbiy qismida tashkil qilingan bo‘lib, umumiyligi maydoni 8000 hektar (ga)ni egallagan. Keyinchalik esa yer maydoni 15600 ga kengaytirilgan. U hozirda Zomin nomini olgan. Qo‘riqxonada asosan tog‘ o‘rmonlarini va archa biologiyasini o‘rganish, archazorlarni ko‘paytirish, hayvon va o‘simlik turlarini saqlab qolish ishlari olib boriladi. Relyefining

murakkabligi va turli iqlim hamda tuproq sharoitlariga ko‘ra, qo‘riqxonada 3 ta o‘simlik mintaqasi (dasht, o‘rmon, subalp) ajratiladi. Qo‘riqxonada archazorlarning quyi qismida (1900–2700 m) Zarafshon archasi va qora archa, o‘rta qismida (2100–2800 m)sovur archa, yuqori qismida (2100–3200 m) o‘rik archa o‘sadi. Bulardan eng ko‘p uchraydigani sovur archadir. U qora archa va o‘rik archa orasida ham o‘saveradi. Qo‘riqxonada hududida 180, hatto 400 yoshga kirgan archalar bor. Qo‘riqxonada hayvonot dunyosi xilma-xil. Qo‘riqxonada hududida o‘simliklarning 720, turli qushlarning 130 turi hamda sut emizuvchilarning 37 turi, sudralib yuruvchilardan 8, baliqning bir turi istiqomat qiladi. Bundan tashqari mamlakatimizda Hisor, Baday-To’qay, Qizilqum, Surxon, Nurota, Kitob davlat geologik qo‘riqxonalar bilan birgalikda Zarafshon milliy bog’i, Quyi Amudaryo biosfera rezervati va shu kabi bir qator alohida muhofaza qilinadigan hududlar faoliyat olib boradi. Ularning har birining o‘ziga xos alohida bajaradigan vazifalari mavjud. Zarafshon davlat qo‘riqxonasi-Samarqand viloyati Zarafshon daryosining o‘ng qirg’og’ida joylashgan. Umumiyl maydoni 2352 hektarni tashkil qilib, shundan o‘rmonzorlar bilan qoplangan maydoni 868 hektarga yetadi. Uning asosiy vazifasi-to’qay o‘simliklari va hayvonot olamiga mansub tabiiy muhitni, noyob va yo’qolib borayotgan o‘simliklar hamda hayvonlar genofondini saqlash, o‘rganish bilan bir qatorda tiklashdan iborat. Hududda o‘simliklarning 266, qo’shlarning 172, baliqlarning 8 turini uchratishimiz mumkin.

Umuman olganda xulosa qilib aytadigan bo’lsak, bugungi kunda tabiatni asrash uchun alohida muhofazaqilinadigan hududlarning o‘rnini benihoyatda katta ekanligini ta’kidlab o’tish joiz deb bilaman. Tabiat va uning elementlaridan munosib tarzda foydalansak insoniyat oldida turgan hozirda mavjud muammolarga samarali yechim topishimiz mumkin. albatta buning uchun jamiyatning har bir a’zosi bir maqsad yo’ida birlashsak harakatlarimiz bejizga ketmaydi. Biologik xilma-xillikni saqlashda va mavjud resurslardan oqilona foydalanishda eng tezkor va kamharj usullarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo’ladi. Kamayib borayotgan turlarni muhofaza ostiga olish ularni yo’q qilinishidan saqlash kamyob hayvonlarni ov qilinishiga yo’l qo’ymaslik choralarini kuchaytirish lozim. Muhofazaga muhtoj turlarni ruyxatga olish va ularni ko’paytirishning ahamiyatini jamiyat a’zolariga singdirish kerak, buning uchun internet tarmoqlaridan, televedeniya va shu kabi aloqa vositalaridan umumli foydalanish samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toxtaev A.S. “Ekologiya” T. “O’qituvchi”. 1998
2. Ergashev A. “Umumiyl ekologiya”. –T. “O’qituvchi”. 2003
3. Toxtaev A.S. “Ekologiya va tabiat muhofazasi”. T. 1994
4. Otaboev SH, Nabiev M. “Inson va biosfera”. T. 1998

5. www.uznature.uz-O’zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo’mitasi sayti.
6. www.biodiv.org- biologik xilma-xillik bo’yicha sayt.
7. www.econews.uz- O’zbekiston ekologik-axborot portal
8. www.uzbekistan.travel
9. Alldata.uz